

**60840100 – Veterinariya meditsinasi (faoliyat turlari bo'yicha)
bakalavriat ta'lim yo'nalishining fanlar kesimida kasbiy kompetensiyalari
JADVALI**

Fanning malakaviy kodi	Fanning nomi	Fan yordamida egallanadigan zaruriy kasbiy kompetensiyalar				Kurslar kesimida fanning o'quv jarayonidagi o'rni				
		I	II	III	IV	I	II	III	IV	
Majburiy fanlar										
O'EYT1105	O'zbekistonning eng yangi tarixi					•				
AF1205	Analitik va fizkolloid kimyo					•				
SAKT1204	Sohada axborot kommunikatsiya texnologiyalari					•				
HB1304	Hayvonlar biokimyosi						•			
F1305	Falsafa								•	
O'RT1104	O'zbek (rus) tili					•				

		<p>faoliyatlarida rus tilidan erkin foydalanuvchi mutaxassislarni tayyorlash. Talabalarning nutq (o'qish, yozish, tinglab tushunish, gapirish), til (leksik, grammatik), ijtimoiy-madaniy va pragmatik kompetensiyalarini rivojlantirish;</p> <ul style="list-style-type: none"> - ilmiy, kasbiy va maishiy faoliyatga bog'lik mavzular yuzasidan og'zaki va yozma bayon etish ko'nikma va malakalarini rivojlantirish. 		
XT1108	Xorijiy til	<p>Nofilologik yo'nalishlarda xorijiy tilni o'rgatishdan asosiy maqsad – kelgusi mutaxassislarda kundalik hayotlari, ilmiy va kasbiy faoliyatlarida chet tilidan erkin foydalanuvchi mutaxassislarni tayyorlash. Talabalarining nutq (o'qish, yozish, tinglab tushunish, gapirish), til (leksik, grammatik), ijtimoiy-madaniy va pragmatik kompetensiyalarini rivojlantirish;</p> <ul style="list-style-type: none"> - ilmiy, kasbiy va maishiy faoliyatga bog'lik mavzular yuzasidan og'zaki va yozma bayon etish ko'nikma va malakalarini rivojlantirish, talabalar uchun belgilab berilgan A1 (CEFR) va undan yuqori darajalarni egallashga qaratilgan. 	•	
VGUA1106	Veterinariya genetikasi va urchitish asoslari	<p>Veterinariya genetikasi va urchitish asoslari fani irsiyat va o'zgaruvchanlik tushunchalari hamda ularning turlari, xromosomalar, genlar tarkibi va ularda bo'ladigan o'zgarishlar, immunitet, immunogenetika va hayvonlarda uchraydigan irsiy kasalliklarni oldini olish usullari, hayvonlarni o'sish va rivojlanishi, chorva mollarning mahsuldorligi va nasl sifatini, genetika qonunlaridan seleksiya va naslchilik ishida keng foydalanish; hayvonlarni mahsuldorlik imkoniyatlarini yuzaga chiqarish; chorvachilikda biotexnologiyadan foydalanish kabi ko'nikma va malakalarini shakllantirishdan iborat.</p>	•	
HA1108	Hayvonlar anatomiyasi	<p>Barcha turdagi hayvonlar va parrandalar anatomik tuzilishining tamoyillari va jihatlari bo'yicha fundamental bilimlarni shakllantirish, organlarning normal tuzilishi, topografiyasi, funksiyasi va klinik muhim organlarning o'zaro bog'liqligi hamda tafovutlarini anatomik model sifatida turli hayvonlar va parrandalarda o'rganish, organlarning anatomo-topografiyasiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash ko'nikmasiga va ularni tahlil qilib baholash malakasiga ega bo'lish.</p>	•	
SGE1205	Sitologiya, gistologiya va embriologiya	<p>Hujayralarning ultratuzilmasi, shakllanish va ko'payish qonuniyatlarini, hayvonlar organizmidagi to'qimalarni hosil bo'lishi, gistologik tuzilishini, organlar tizimlarining mikroskopik tuzilishini,</p>	•	

		hayvonlar organizmining embrional taraqqiyotini kechish tamoyillarini aniqlash ko'nikmasiga va ularni tahlil qilib baholash malakasiga ega bo'lish.			
VKE1305	Veterinariyada kasb etikasi	Veterinariya vrachining madaniyati, etikasi, veterinariya vrachining jamiyatda tutgan o'rni va veterinariya vrachining betakror ustunliklari borasidagi tushunchalarni singdirish, shu bilan birga bo'lajak veterinariya vrachlarida faxr tuyg'usini shakllantirish ko'nikmasini hosil qilish.	•		
HF1306	Hayvonlar fiziologiyasi	Hayvonlar organizmida kechayotgan hayotiy jarayonlarning umumiy qonuniyatlarini, kechishi va boshqarilishini, moddalar almashinuvi hayotiy jarayonlarning asosiy mohiyati ekanligini, ularning hayvonlar mahsuldorligini oshirishdagi ahamiyatini bilish, hayvonlarning fiziologik ko'rsatkichlarini aniqlash ko'nikmasiga va ularni tahlil qilib baholash malakasiga ega bo'lish.	•		
VMI1306	Veterinariya mikrobiologiyasi va immunologiyasi	Asosiy biologik fan sifatida kelajakda mutaxassislarning dunyoqarashini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Ular tabiatda, organizmida, xo'jalik ishlab chiqarishning turli sohalarida uchraydigan turli xil biologik jarayonlar bilan chuqur tanishadi.	•		
HOT1406	Hayvonlarni oziqlantirish texnologiyasi	Ozuqalarning zootexniyaviy tahlili, ularning kimyoviy tarkibi va to'yimligini baholash, qishloq xo'jalik hayvonlarining to'yimli moddalar va energiyaga bo'lgan talabalarini belgilash, ratsion tuzish va uni tahlil qilish hamda oziqlantirishning to'la qiymatligini nazorat qilish metodlarini bilish va qo'llash.	•		
ZVS1406	Zoogiyena va veterinariya sanitariyasi	Hayvonlar organizmiga tashqi muhit omillarining hayvonlar turi, jinsi, zoti, saqlash sharoiti, maxsuldorligi va boshqa ko'rsatkichlariga qanday tasir qilishini turli toifadagi chorvachilik xo'jaliklarida hayvonlar mahsuldorligini oshirish ko'nikmalariga ega bo'lish	•		
VV1406	Veterinariya virusologiyasi	Veterinariya virusologiyasi mohiyati, uning maqsadi va vazifalari, viruslarning kelib chiqishi, ularning tuzilishi, xususiyati, hayvonlarda virus kasalliklarining patogenezini, virusga qarshi immunitetning o'ziga xosligi, maxsus profilaktika usullari va vositalari to'g'risida bilim olishga qaratilgan	•		
HP1406	Hayvonlar patofiziologiyasi	Hayvonlar organizmida kechayotgan patologik jarayonlarning etiopatogenezlarini, me'yor va patologiyani farqlashni, kasalliklar rivojlanishining ilmiy va amaliy qonuniyatlarini bilish, turli omillarning	•		

		patologiyadagi ahamiyatini aniqlash ko'nikmasiga va ularni tahlil qilib baholash malakasiga ega bo'lish.			
KDR1506	Klinik diagnostika va rentgenologiya	<p>Klinik tekshirish rejasi va tartibi (klinik ssenariya) hamda laborator analizlari ma'lumotlari tahlili asosida organizmdagi har xil tizimlarda kechayotgan har xil kasalliklar (buzilishlar)ni aniqlash va tashxis qo'yish, kechayotgan patologik jarayonlarga ilmiy baho berish, kasallikka uchragan a'zolari fiziologik darajaga qaytarishga qaratilgan rentgenografiya va ultratovush tekshirishlardagi tasvirlarning ichki a'zolar kasalliklarini aniqlashdagi ahamiyatiga e'tibor qaratish malakasiga ega bo'lish.</p>			•
VF1506	Veterinariya farmakologiyasi	<p>Dorilarni hayvonlar organizmida tarqalishi, farmakodinamikasi, dozasi, dorilarni qo'llashdagi ta'siriga tanqidiy baho berish, nafas olish, ko'payish organlari, oshqozon-ichak tizimi, ichki sekretiya, immun, siydik ajratish, teri yuzasiga, yurak-qon tomir tizimiga, suyak, muskullar hamda nerv tizimlariga ta'sir etuvchi dorivor moddalar, xayvonlarga og'riqqa, yallig'lanishga hamda shishlarga qarshi moddalar, antibiotiklar va boshqa yuqumli, parazitlar va yuqumsiz kasalliklarga qarshi qo'llaniladigan preparatlarni aniqlash ko'nikmasiga va ularni tahlil qilib baholash malakasiga ega bo'lish.</p>			•
OXTA1506	Operativ xirurgiya va topografik anatomiya	<p>Hayvonlar a'zolarining anatomo-topografik tuzilishi, ularda o'tkaziladigan operatsiyalar, og'riqsizlantirish, narkoz turlarini bilish, turli xildagi xirurgik kasalliklarda qo'llaniladigan operatsiya usullari va ularni bajarish texnikasini amalda qo'llash ko'nikmasiga va ularni tahlil qilib baholash malakasiga ega bo'lish.</p>			•
PAGYVSE 1506	Patologik anatomiya, gavda yorish va veterinariya sud ekspertizasi	<p>Hayvonlarning turli kasalliklarida rivojlanadigan morfologik o'zgarishlarni va shu asosida patologoanatomik tashxis qo'yish usullarini bilish, kasalliklarga qiyosiy tashxis qo'yish, gavda yorish texnikasini o'zlashtirish, hayvon gavdasini veterinariya sud ekspertizasidan o'tkazish va asoslangan xulosa chiqarish ko'nikmasiga va ularni tahlil qilib baholash malakasiga ega bo'lish.</p>			•
VA1506	Veterinariya akusherligi	<p>Hayvonlar jinsiy a'zolarining morfo-funksional xususiyatlari, hayvonlarni ko'paytirish biotexnikasi, bo'g'ozlik, tug'ish va tug'ishdan keyingi davr fiziologiyasi va patologiyasi, akusher-ginekologik kasalliklar, yangi tug'ilgan hayvonlar va sut bezlarining kasalliklari, urg'ochi va erkak hayvonlar bepushtliklarni sabablari va kechish</p>			•

		xususiyatlarini o'rganish, diagnostikasi, davolash va oldini olish tadbirlarini tashkillashtirish hamda ularni tahlil qilib baholash malakasiga ega bo'lish.			
VITEIQ1606	Veterinariya ishini tashkil etish, iqtisodiy va qonunchiligi	Veterinariya sohasida uning tashkiliy tuzilishi, boshqarish, veterinariya ishini tashkil etish, veterinariya qonunchiligi, veterinariyada hisobga olish, hisobotlar tayyorlash va ish yuritishga oid normativ-huquqiy xujjatlarni bilish, veterinariya tadbirlarini rejalashtirish, tashkil etish, moliyalashtirish, moddiy ta'minoti, veterinariya sanitariya nazorati, xalqaro amkorlik va iqtisodiy samaradorlikni aniqlash ko'nikmasiga va ularni tahlil qilib baholash malakasiga ega bo'lish.			•
VSE1606	Veterinariya sanitariya ekspertizasi	Oziq-ovqat maxsulotlari, chorva mollari parranda, baliq, asal va o'simliklardan olinadigan oziq-ovqat maxsulotlarni sanitariya jxatdan baxolash, maxsulotlarni qayta ishlash texnologiyasini va uning sanitariya gigiyenik qoidalarini hamda barcha turdagi oziq-ovqat mahsulotlarini tekshirish usullarini va ularni tahlil qilib baholash malakasiga ega bo'lish.			•
VX1606	Veterinariya xirurgiyasi	Hayvonlarda uchraydigan xirurgik kasalliklarning etiopatogenezi, tashxisi, davolash va oldini olish chora-tadbirlarini bajarish, xirurgik operatsiyalarga tayyorgarlik ko'rish hamda uni amalga oshirish ko'nikmasiga va ularni tahlil qilib baholash malakasiga ega bo'lish.			•
PK1704	Parranda kasalliklari	Parrandalarning infeksiyon, invazion va yuqumsiz kasalliklarini to'g'ri aniqlash, iqtisodiy zarari, klinik va patologoanatomik ko'rsatkichlarni, zamonaviy laboratoriya tekshirishlarni bilishi va ulardan amaliyotda foydalana olishi lozim. Parrandalardan qon va najas olish tartibi, undagi bakteriya, zamburug', parazit, viruslarni ajratishni, parranda kasalliklariga diagnoz qo'yish tartibini, zamonaviy davolash usullarini qo'llash va veterinariya xizmatini to'g'ri tashkillashtirish hamda samarali amalga oshirish malakasiga ega bo'lish.			•
IYK1708	Ichki yuqumsiz kasalliklar	Hayvonlarida uchraydigan ichki yuqumsiz kasalliklarga to'g'ri tashxis qo'yish, ularning sabablarini aniqlash, davolash sxemasi va davolash kursini to'g'ri belgilash, oldini olish chora – tadbirlarini ishlab chiqish va o'tkazish ko'nikmasiga hamda klinik fikr yuritib ma'lumotlarni chuqur tahlil qila olish malakasiga ega bo'lish.			•
EIK1708	Epizootologiya va infeksiyon	Veterinariya sohasida infeksiyon kasalliklar va epizootik			•

	kasalliklar	jarayonlarning qonuniyatlari, rivojlanish tendensiyasi, infeksiya qo'zg'atuvchilarning xususiyatlari, infeksiyon kasalliklarning namoyon bo'lishi, rivojlanish bosqichlari, tarqalishi, globaltasiri, zoonozlar, epidemiologiya va jamoat sog'lig'ini saqlash, infeksiyon kasalliklarni oldini olish va qarshi kurashish muolajalarini bilish, infeksiyon patologiyani aniqlash ko'nikmasiga va vaziyatni tahlil qilib baholash malakasiga ega bo'lish.				
VT1804	Veterinariya toksikologiyasi	Tabiiy, yashash joylari va qishloq xo'jaligi hamda sanoat ishlab chiqarish sharoitlarida uchraydigan, hayvonlar organizmiga zararli toksik ta'sir mexanizmlariga ega bo'lgan moddalarni bilish, toksikantlar ta'siridan yuzaga keladigan zaharlanishlarni davolash va oldini olish chora – tadbirlarini ishlab chiqish va o'tkazish ko'nikmasiga hamda ma'lumotlarni chuqur tahlil qila olish malakasiga ega bo'lish.				•
PIK1806	Parazitologiya va invazion kasalliklar	Organizmlarning o'zaro munosabatlari, parazitizmning kelib chiqishi, tarqalishi, parazitlarning klassifikatsiyasi, parazit xo'jayinlari, ularning morfologiyasi va biologik rivojlanishi, epizootologiyasi, patogenezini, klinik belgilari, patologo-anatomik o'zgarishlari, tashxisi, qiyosiy tashxisi, davolash, oldini olish va qarshi kurash choralarini o'zlashtirish, ularning ilmiy va amaliy ahamiyatini aniqlash ko'nikmasiga va ularning iqtisodiy zararini tahlil qilib baholash malakasiga ega bo'lish.				•
Tanlov fanlar						
LTVA2102	Lotin tili va veterinariya atamallari	Lotin tili yozuvi, to'g'ri o'qilishi va talaffuz qilinishi, xalqaro anatomik nomenklaturaga kiritilgan hamda veterinariya meditsinasi sohasida qo'llaniladigan butun dunyoda umum qabul qilingan atamalarni bilish, ularning mazmun-mohiyatini aniqlash ko'nikmasiga va ularni tahlil qilib baholash malakasiga ega bo'lish				•
BR2105	Biofizika va radiobiologiya	Biofizik jarayonlarni, tabiatda uchraydigan radioaktiv izotoplarning manbalari va ularning tirik organizmga biologik ta'sirini, yadroviy nurlanishlar natijasida hayvonlar organizmida paydo bo'ladigan patologik o'zgarishlarni bilish, hayvonlarda nurlanishlar oqibatida kelib chiqadigan kasalliklarni diagnostika qilish va davolashda fizikaviy usullarni to'g'ri qo'llash ko'nikma va malakalariga ega bo'lish.				•
EAMM2104	Ekologiya va atrof-muhit muxofazasi	Bo'lajak mutaxassislarga ekologiya va atrof-muhit muxofazasi ning ekologik va atrof-muhit muxofazasiga oid nazariy asoslarini va amaliy				•

		bilimlarni berish, faoliyatiga oid malaka va ko'nikmalarni shakllantirish			
JTS2202	Jismoniy tarbiya va sport	Jismoniy tarbiya va sport, sog'lom turmush tarzi, jismoniy barkamollikka intilish, va o'z-o'zini tarbiyalash, jismoniy mashqlar bilan muntazam ravishda shug'ullanish zaruratini shakllantiradi	•		
O'TSQ2202	O'zbek tilini sohada qo'llanilishi	Noflologik yo'nalishlarda o'zbek tilining sohada qo'llanilishi fanining asosiy maqsadi -bo'lajak mutaxassis kelgusida ish yuritish va soha terminologiyasi haqida tasavvur va bilimiga ega bo'lishi; hujjatlarni to'g'ri yoza olish va terminlarni o'rinli qo'llay olish ko'nikmalariga ega bo'lishi; ish qog'ozlarini imlo xatolasiz, terminlarni esa o'z o'rnida ishlata olish malakasiga ega bo'lishi kerak. Shu bilan birgalikda o'z sohasi va kasbiy faoliyatida o'zbek tilining qo'llanilishini muhim jihatlarini anglay olishi zarur.	•		
BAK2604	Baliq va asalari kasalliklari	Baliq va asalarning infeksiyon, invazion, yuqumsiz va turli xil zaharlanishlarini aniqlash, ularning zararkunandalari va dushmanlariga qarshi uzviy kurashish, davolash, oldini olish chora-tadbirlarini hamda ushbu kasalliklar aniqlangan baliqchilik va asalarichilik fermer xo'jaliklarida sog'lomlashtirish muolajalariga oid bilim, ko'nikma va amaliy malakalarini shakllantirish.	•		
XXHK2706	Xarbiy xizmat hayvonlari kasalliklari	Yilqichilikda ot treningining o'rni va ahamiyati xarbiy otlarni saqlash va ekspluatatsiyasi, otlarni sistematik ravishda mashq qildirishning ulardagi nasli interyer sifatlariga ijobiy ta'sir qilish asoslari; ot kasalliklarining etiologiyasi, patogenezi, tashxis qo'yish va davolash tamoyillari; itlarni dressirovka qilish usullarining qonuniyatlarini, dressirovkaning turlari - umumiy va maxsus dressirovka qilish usullari haqida tasavvurga ega bo'lish. Har bir harbiy xizmat hayvoniga tegishli zoogigiyenik talablarini, hayvonlarning harakat a'zolarining funksional xossalarni, otlar treningiga asosiy ko'rsatmalarni, otlarni trening paytida shikastlanishlar, ularni davolash va oldini olish tamoyillarini, harbiy otlar trenigi nazariyasini, shikast va shikastlanishlar oqibatida kelib chiqadigan kasalliklarni, infeksiyalarni oldini olish, itlarda uchraydigan viruslar va bakteriyalar tomonidan chaqiriladigan kasalliklari, itlarning invazion kasallilari, yuqumsiz, akusher-ginekologik va xirurgik kasalliklarining kelib chiqish sabablari,	•		

YHK2705	Yosh hayvonlar kasalliklari	patogenezi to'g'risida umumiy ma'lumotga ega bo'lish. Yosh hayvonlar kasalliklariga to'g'ri tashxis qo'yish, ularning sabablarini aniqlash, davolash sxemasi va davolash kursini to'g'ri belgilash, oldini olish chora – tadbirlarini ishlab chiqish va o'tkazish ko'nikmasiga hamda klinik fikr yuritib ma'lumotlarni chuqur tahlil qila olish malakasiga ega bo'lish.							•
YMHK2705	Yovvoyi va mo'ynali hayvonlar kasalliklari	Yovvoyi va mo'ynali hayvonlarning infeksiyon, invazion va yuqumsiz kasalliklarining kelib chiqish sabablari, epizootologiyasi, patogenizi, iqtisodiy zarari, klinik va kasallikni zamonaviy laborator tekshirish usullari orqali aniqlash, ulardan amaliyotda foydalana olishi lozim. Kasalliklarga diagnoz qo'yish tartibini, davolash, kasalliklarga qarshi kurashish chora-tadbirlarini tashkillashtirishda nazariy va amaliy asoslarini hamda bu muammolar bo'yicha yechimlar qabul qila olish malakalariga ega bo'lishi kerak.							•
EDHK2804	Ekzotik va dekorativ hayvonlar kasalliklari	Ekzotik va dekorativ hayvonlarni to'liq klinik hamda zamonaviy laborator tekshirishlardan o'tkazish orqali infeksiyon, invazion, yuqumsiz va modda almashinuvi buzilishi kasalliklariga to'g'ri tashxis qo'yishni bilish, kasal hayvonlarni davolashda amaliy asoslangan holda dori vositalarini to'g'ri tanlash, terapevtik texnika va zamonaviy davolash usullarini qo'llash hamda kasallikning oldini olish malakalariga ega bo'lish.							•